


---

## FARG'ONA VA BATKEN VILOYATLARI FAOLLARINING MUROJAATI



### **FARG'ONA VA BATKEN VILOYATLARI FAOLLARINING MUROJAATI**

Barchamizga yaxshi ma'lumki, o'zbek va qirg'iz xalqi asrlar mobaynida abadiy hayot timsoli bo'lgan daraxt shoxlaridek qo'ni-qo'shni, qon-qardosh bo'lib umrguzaronlik qilib kelmoqda.

Milliy qadriyat va an'analari, diniy e'tiqodi o'zaro mushtarak, bozori va mozori bir bo'lgan xalqlarimizning turmush tarzi uzukka qo'yilgan ko'zdek bir-biriga juda mos tushadi. Yaxshi kunda ham, yomon kunda ham yelkadosh bo'lib, birda shodumon, birda qayg'uli taqdir sinovlaridan mardonavor o'tib kelayotgan ikki xalq har doim ishonchli do'st sifatida bir-biri uchun aziz va qadrlidir.

Mamlakatlarimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida muhtaram Prezidentlarimiz Shavkat Mirziyoev hamda Sooranbay Jeenbekovning ezgu tashabbuslari, siyosiy irodasi, ikki do'st xalqning asriy an'analariga sadoqati tufayli oliy darajadagi uchrashuvlar doirasida O'zbekiston va Qirg'iziston Respublikalari o'rtasidagi o'zaro ishonch-li, hamfikrlik tamoyillariga asoslangan do'stona munosabatlar jadal rivojlanyapti. Davlatlarimiz rahbarlarining tashqi siyosat borasida, eng avvalo, qo'shnilar, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan ko'p qirrali hamkorlik aloqalarini kuchaytirishga jiddiy e'tibor qaratilayotgani barchamizni behad mamnun etadi.

Ayni kunlarda ikki tomonlama manfaatli hamkorlik ko'lami mamlakatlarimizning alohida mintaqalari, chegaradosh hududlar miqyosida ham tobora yuksalib borayotgani quvonarli, albatta. Bu borada Farg'ona va Batken viloyatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniyat, adabiyot, san'at singari ko'plab sohalar bo'yicha hamkorlik kundan kunga yaxshilanib borayotgani yanada quvonarlidir.

Bugungi kunda ikki viloyat o'rtasida tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, turizm kabi ko'plab istiqbolli yo'nalishlarda hamkorlik yo'lga qo'yilib, o'zaro tajriba almashish, delegatsiyalar tashrifi yaxshi an'anaga aylanib bormoqda. Bunga o'tgan qisqa vaqt mobaynida bir necha marotaba amalga oshirilgan ikki viloyat delegatsiyalarining o'zaro tashriflari, xususan, yaqinda Farg'ona viloyatida Batken viloyati delegatsiyasi ishtirokida tashkil etilgan xalqaro OAV sohasidagi ilmiy-amaliy anjuman yaqqol misol bo'la oladi.



Hayotning kutilmagan qiyinchiliklari davrida bir-biriga yelkadosh bo'lish, o'zaro yordam qo'lini cho'zish xalqlarimizning ezgu fazilatlarini sirasiga kiradi. Dunyoda koronavirus pandemiyasi keng avj olgan shu sinovli kunlarda ham Farg'ona va Batken viloyatlari rahbarlari kundalik zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari, tibbiy-sanitariya jihozlarini beg'araz yordam tariqasida jo'natganliklari xalqlarimiz o'rtasida yaqin qardoshlik, qo'ni-qo'shnichilik an'analari bardavom ekanligidan dalolatdir.

Afsuski, bugungi dolg'ali zamonamizda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi tarixiy ildizlari mustahkam bunday ishonch-li hamkorlik, do'stona munosabatlar keng quloq yozishini istamaydiganlar ham yo'q emas. Global siyosat yuritish orqali dunyoga egalik qilish da'vosidagi bunday yovuz kuchlar talotoplar keltirib chiqarish va shu yo'l bilan tinch hayotni izdan chiqarishni o'ylaydilar.

Ammo hayotning ko'p yaxshi-yomon kunlarini boshidan o'tkazgan, har qanday vaziyatga og'ir-vazminlik bilan baho beradigan ikki xalq bu kabi aldovlarga osonlikcha aldanib qolmaydi. Otabobolarimizning qo'lida hamisha gulqaychi, ketmon, cho'pon tayog'i bo'lgan. Dehqonchilik va chorvachilik yumushlari bilan elning rizq-nasibasi butun bo'lishini ta'minlash bizga ajdodlardan meros an'ana. Asrlar mobaynida sayqallanib, ko'hna tarix va zamonaviy taraqqiyot mezonlarini o'zaro uyg'unlashtirib kelayotgan hayotbaxsh qadriyatlarimiz bugungi kunda ham izchil davom etmoqda.

Biz dunyo xalqlariga tinchlik tilaydigan va shuning barobarida o'z yurtimizda tinch-farovon umrguzaronlik qilishni istaydigan jannatmakon diyoy farzandlarimiz. Shu bois imon-e'tiqodda sobit o'zbek va qirg'iz xalqi turli finta-ig'volarni mardonavor yengib o'tib, hamisha bir-birlariga yorug' yuz bilan peshvoz chiqishlariga ishonamiz.

Donishmand xalqlarimiz har qanday murakkab va sinovli vaziyatda barchasini eng oliy hakam bo'lgan vaqtning hukmiga havola etishni ma'qul ko'radi. Chunki barchasiga vaqt eng odil va xolis bahoni beradi. Shu bilan birga bu kabi vaziyatda hech birimiz jarayonning shunchaki kuzatuvchisi emas, balki faoli va fidoyisi bo'lib tinch-osoyshta hayotimizni ko'ra olmaydiganlarga qarshi birgalikda kurashishimiz lozim.

Jannatmakon shu ota yurt bizning ona-Vatan, bizning kelajagimiz! O'z taqdiri va kelajagiga befarq bo'lishga esa hech kimning haqqi yo'q!

---

jurnalist.

Adilbek Akmatov,

“Batken tayani” viloyat gazetasi bosh muharriri.

Enaxon Siddiqova,

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

Farg‘ona viloyati bo‘limi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri, senator.

Abdiaat Dorov,

Qirg‘iziston Respublikasi

Yozuvchilar uyushmasi Batken viloyati bo‘limi raisi, shoir.

Musharraf Qo‘chqarova,

Farg‘ona viloyati qirg‘iz

milliy madaniy markazi rahbari.

Eldiyor Komiljonov,

Batken viloyati qirg‘iz-o‘zbek

madaniyat markazi raisi.

Ilhom Ibrohimov,

O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi.

Dilfuza Dadaboeva,

hofiza.

Zuhra Alieva,

“Quva hayoti” gazetasi

bosh muharriri, shoira.

Askar Rajabaliev,

Qirg‘iziston Yozuvchilar uyushmasi

a‘zosi, yozuvchi.

Mansur Parpiev,

Qirg‘iziston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat arbobi.

**DIL YaQIN,**

**TILLAR YaQIN...**

---

O‘zbeğu qirg‘iz elin taqdir degan ummoni bir,

E‘tiqod iymonda sobit, ham yeru osmoni bir.

---

Dil yaqin, tillar yaqin, qondosh-qarindoshdir azal,  
Sajdagohi – qiblası bir, joynamoz, Qur’oni bir.

To’yu tadbirlarda yopgay bir-biriga zar chopon,  
Urfu odatlarda xoslik – mehmonu mezboni bir.

Rohatin mehnatda bilgay chorvador, dehqon elat,  
Har bahor yo’qlab kelar qaldirg’ochin ayvoni bir.

Bu qadim do’stlik qo’shiqdir, bu qadim do’stlik – g’azal,  
Biri ustoz, biri shogird kuy-o’lan, dostoni bir.

Qirg’izu o’zbek azaldan turk elin avlodidir,  
Og’a-ini, do’st-birodar, zavqi bir, armoni bir.

Bir ariqdan suv ichib kelgay mudom bu el-elat,  
Chunki yov raxna sololmas dil degan qo’rg’oni bir.

Dil yaqin, tillar yaqin, qondosh-qarindoshmiz azal,  
Dinu iymon ahli borki, qiblası, Qur’oni bir.

**Zuhra Alieva**  
2020-05-07 18:05:53